

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeveva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellash tizimining samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурабаев Отабек Джурабаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN RISKLARNI SUG'URTALASHNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Egamov Zoxid Baxtiyarovich

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kapital va sug'urta bozorlarini rivojlantirish departamenti, Sug'urta bozorini rivojlantirish boshqarmasi, Sug'urta va sug'urta-brokerlar faoliyatini litsenziyalash bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakat ichki bozorida sog'lom va kuchli raqobat muhitini yaratish ilgari surilgan. Shu asosda uning raqobatdoshligini oshirish, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish asosida aholi daromadlarini ko'paytirish bilan mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tadbirkorlik sohasining o'ri, tadbirkorlikdan yetarli darajada samaraga erishishi tahlil qilingan. Dunyo mamlakatlari qatorida teng raqobat qila olishning iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribalarini o'rganish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini moliyalashtirishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkor, innovatsion tovar, xususiy tadbirkorlik, mehnat samaradorligi, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, mehnat unumdorligi, innovatsion iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, tovar, innovatsion tovar, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: Данная статья способствует созданию здоровой и сильной конкурентной среды на внутреннем рынке страны. Исходя из этого, роль предпринимательского сектора в обеспечении устойчивого экономического роста в стране за счет увеличения доходов населения на основе повышения его конкурентоспособности, наполнения его качественной и экспортоспособной продукцией, создания новых рабочих мест, достижения проанализирован достаточный уровень эффективности от предпринимательства. Анализируются теоретические аспекты экономической сущности способности на равных конкурировать между странами мира. Также на основе изучения опыта разных стран разработаны научно-теоретические предложения по совершенствованию организационно-экономического механизма финансирования развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, предприниматель, инновационный продукт, частное предпринимательство, эффективность труда, экономическая деятельность, предпринимательская деятельность, производительность труда, инновационная экономика, экономический рост, продукт, инновационный продукт, социально-экономическая эффективность, организационно-экономическая эффективность.

Abstract: This article promotes the creation of a healthy and strong competitive environment in the country's domestic market. On this basis, the role of the business sector in ensuring stable economic growth in the country by increasing the income of the population on the basis of increasing its competitiveness, filling it with high-quality and exportable products, creating new jobs, and achieving sufficient efficiency from entrepreneurship are analyzed. The theoretical aspects of the economic essence of being able to compete equally among the countries of the world are analyzed. Also, on the basis of studying the experiences of different countries, scientific-theoretical proposals have been developed to improve the organizational and economic mechanism of financing the development of small business and private entrepreneurship.

Key words: small business, entrepreneur, innovative product, private entrepreneurship, labor efficiency, economic activity, entrepreneurial activity, labor productivity, innovative economy, economic growth, product, innovative product, socio-economic efficiency, organizational and economic efficiency.

KIRISH

Mamlakat ichki bozorida sog'lom va kuchli raqobat muhitini yaratish va shu asosda uning raqobatdoshligini oshirish, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda shuning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish bilan mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tadbirkorlik soha-



sining o'zni beqiyosdir. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining qay darajada ekanligiga bog'liq. Bozor segmentiga tez moslashuvchanligi, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida uncha katta bo'lmagan moliyaviy mablag'lar hisobiga ko'zlangan natijaga erishish kichik biznesga xos xususiyatdir.

Shu sababli O'zbekistonda so'nggi yillarda, ham ijtimoiy ham iqtisodiy soha tarmoqlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, ular uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik sohasini rivojlantirish orqali xalqning turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishining uchinchisi-da "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" belgilangan bo'lib, unda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish" ^[1] bo'yicha alohida islohotlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda bugungi kunda mazkur sohani rivojlantirish uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida ishlar olib borilmoqda, tadbirkorlar uchun turli ko'rinishdagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda va shu jumladan keyingi yillarda mamlakatimizda ham har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlarining asosiy qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu soha vakillari tomonidan yaratilayotgan yangi ish o'rinlari faqatgina sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish sohaslarida emas, balki iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning boshqa juda ko'plab yo'nalishlarida va shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak, innovatsion yo'nalishlarda yaratilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlarning hozirgi zamon bosqichi shaxsiy, jamoaviy va ijtimoiy manfaatlarini birgalikda va uyg'un tarzda amalga oshirishni talab etadi. Sovet tuzumi davrida xususiy mulkchilik mavjud bo'lmaganligi tufayli qonunchilik va ijtimoiy-iqtisodiy hujjatlarda mazkur soha xususiyatlari e'tiborga olinmas edi.

XXI asrning o'tgan yillari davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, amalga oshirilgan institutsional o'zgarishlarda davlat yetakchilik vazifasini o'tash bilan birga iqtisodiyotga aralashuv va uni boshqarishda chegaralarni belgilash hamda ijtimoiy, davlat va xususiy sektorlarning huquqiy ta'minotida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashi zarur.

O'zbekiston endilikda mumkin qadar tez fursatda dunyo mamlakatlari bosib o'tgan yo'l, ya'ni tadbirkorlikni barcha sohada rivojlantirish va bunda hozirgi zamon nazariyasi va amaliyoti erishgan yutuqlarga tayanishi zarur. Albatta buning uchun dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy va boshqa sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yishi muhim hisoblanadi. Bu yo'l oxir oqibatda mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi va insonlar hayot farovonligining ortishiga olib keladi.

Hech bir mamlakat barcha sohada ilg'or bo'la olmaydi. Shuning uchun mamlakat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda taraqqiyot yo'llarini belgilab olishi va shu asosda strategik maqsadlarni amalga oshirishi zarur.

Tadbirkorlikdan yetarli darajada samaraga erishish va dunyo mamlakatlari qatorida teng raqobat qila olish uchun avvalam bor tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan to'g'ri anglab olish muhim hisoblanadi.

Tadbirkorlik davlat tomonidan amalga oshirilmaydi, davlat faqatgina tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Davlat tadbirkorlikka sharoit yaratib berish bilan birga unga erkinlik berishi va davlat aralashuvini bekor qilishi zarur. Shundagina iqtisodiyot o'zi rivojlanadi. Qachonki tadbirkorlik sohasi o'zi rivojlanib, takror ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari to'xtovsiz ishlab chiqilsa va natijada iste'molchiga umuman no-ma'lum bo'lgan yangicha mahsulotlar ishlab chiqilishiga erishilsa yoki mavjud mahsulotning yangicha ko'rinishlari yaratilsa, ishlab chiqarishning yangicha usullari (ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar yoki tovarlardan tijoriy foydalanishdagi innovatsiyalar) ishlab chiqilsa, yangi bozorlar yoki bozorlarning yangi segmentlari o'zlashtirilsa, xom-ashyoning yangi manbalari ishlab chiqilsa, mehnatni tashkil qilishning yangi metodlari yaratilsa, bularning barchasi tadbirkorlikdir.

Mulkka ega bo'lish va shart-sharoitlarga ega bo'lish bu tadbirkorlikning belgisi emas. "Tadbirkor" tushunchasi bu shunday o'quv va funksiyalarga ega bo'lishki, bunday xususiyatlarga ega shaxs har qanday sharoit va ijtimoiy formatsiyada ham o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladi. Yangi kombinatsiyalarni amalga oshirishdan to'xtagan xo'jalik subyekti tadbirkorlik subyekti emas.

Innovatorlik xususiyatiga ega bo'lgan shaxslarga tadbirkorlik funksiyasini bajara olishi mumkin. Bu xo'jalik subyektlarining o'ziga xos shaklidir. Tadbirkorlik faoliyati bu yangi faoliyat bo'lib, u oddiy barcha xo'jalik subyektlari kabi ma'lum texnologiyalardan va xo'jalik yuritish usullaridan foydalanishdan farq qiladi. Bu innovatorlik mehnatidir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadbirkorlik sohasida mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mehnat samaradorligini oshirish, mamlakat ichki bozorida sog'lom va kuchli raqobat muhitini yaratish va shu asosda uning raqobatdoshligini oshirish, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda shuning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish mexanizmini takomillashtirishga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlarini tadqiqot qilish jarayonida tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, kompleks baholash, guruhlash, mantiqiy va taqqoslama tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yevropalik buyuk iqtisodchi Y. Shumpeterning (1883–1950-yillarda yashab ijod qilgan) ta'kidlashicha, tadbirkorlikning iqtisodiy jarayoni o'rtacha daromad olish bilan belgilanmaydi, balki yuqori daromad olish jarayoni bilan – takror ishlab chiqarish jarayonida yangi kombinatsiyalarni ishlatish orqali tadbirkorlik daromadini olish bilan belgilanadi. Tadbirkorlik to'g'risida uning shunday iborasi bor: "Tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini u bo'lmagan joyda juda his qilish mumkin" [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik nazariyasi rivojlanishining yana bir yo'nalishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bu yo'nalish ishlab chiqarishni tashkil qilishning tadbirkorlik shakli bilan birga tadbirkorning boshqaruv faoliyatini o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlikka oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar XVIII asrning buyuk allomalari R. Kantilon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit, J. B. Sey va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik bu boradagi tadqiqotlar kengayib, alohida ilmiy yo'nalish tusini olgan va ularning natijalarini amaliyotda qo'llash esa iqtisodiyotga o'zining samarali ta'sirini namoyon qila boshlagan.

A. Smit, D. Rikardo va K. Marksning asarlarida tadbirkor takror ishlab chiqarish jarayonida kapitalist sifatida amal qiluvchidir deya e'tirof etilib, uning roli ishchi kuchlari tomonidan yaratilgan foydani o'zlashtirishda ko'rinadi deya ta'riflanadi. [3]

XX asrda tadbirkorlikni ilmiy-amaliy tahlil qilishda yangi Avstriya maktabining atoqli vakili bo'lgan U. Shumpeter katta rol o'ynadi. U tadbirkorlikning harakatchan iqtisodiy jarayondagi rolini, uning yaratuvchanlik funksiyasini aniqladi, tadbirkorning psixologik qiyofasini chizdi. Uning ta'kidlashiga ko'ra, tadbirkor iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuchdir. Tadbirkorlikka o'z-o'zidan paydo bo'lgan narsa deb, e'tiborsizlik bilan qarashlarni tanqid qilib, tadbirkorlik bo'lmagan iqtisodiyotni tasavvur qilib ko'rishni tavsiya etadi. U tadbirkorning energiyasi, irodasi, intilishi investitsiya jarayonini harakatga keltiradi, texnik taraqqiyotning yuqori cho'qqisiga ko'tarilishiga imkon yaratadi, inqirozga uchragan iqtisodiyotni qayta jonlantiradi va tiklaydi deb e'tirof etadi.

Shumpeter tadbirkorlik faoliyatining maqsadlari, tadbirkorning intilish sabablarini o'rganib, uning psixologik qiyofasini quyidagicha ifodalaydi:

- haqiqiy tadbirkorda hukmronlik qilish, egalik qilishga intilish moddiy farorvonlikka erishishdan ham kuchliroq rivojlangan bo'ladi;
- iroda tadbirkorni g'alabaga yetaklaydi, foyda esa uning uchun muvaffaqiyat barometri bo'lib xizmat qiladi;
- haqiqiy tadbirkor ijod va yaratishga intiladi va uning quvonchini his qiladi.

Yangi Avstriya maktabining yana bir atoqli vakili F. Fon Xaek ham Shumpeterga hamohang ravishda tadbirkorlik – bu yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish, o'rganish va ishga solish deb hisoblaydi va faoliyati izlash tarzida kechadigan har qanday shaxsga bo'lg'usi tadbirkor deb qaraydi.

Tadbirkorlik sohasini tadqiq qilgan va xususiyatlarini ochib bergan Rossiyalik birinchi iqtisodchi I. T. Pososhkov bo'lib, u tomonidan imperator uchun tayyorlangan va e'tiborga sazovor bo'lgan ishi – "Kniga o skudosti i bogatstve" deb nomlangan kitobi hisoblanadi. Mazkur kitobda I. Pososhkov tadbirkorlikni "Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rolni bajaradigan, davlat va uning fuqarolarining boyishi, Rossiyaning fuqarolik tiklanishining asosiy elementi va kuchli davlatga aylanish manbai" [4] deb baholagan.

Shunday ekan, tadbirkorlik sohasining rivojlanishi har qanday mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanishini, xalqining farovonligini, ish bilan ta'minlanish darajasi yuqori bo'lishining kafolati hisoblanadi. Shuning uchun davlat mazkur sohaning rivojlanishi uchun har tomonilama shart-sharoitlarni yaratib berishi va shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatining erkinligini ta'minlashi zarur.

Ma'lumki, iqtisodiy faoliyat tushunchasi va tadbirkorlik faoliyati tushunchalari mavjud. Ko'pgina adabiyotlarda foyda olishni maqsad qilib qo'ygan holda amalga oshirilgan har qanday faoliyat iqtisodiy faoliyat ekanligi e'tirof etilgan. Tadbirkorlikning ham tub ma'nosi aslida shunday. Bunday holatda iqtisodiy faoliyat bilan tadbirkorlik faoliyatini bir-biridan qanday farqlash mumkin. Bizningcha iqtisodiy faoliyat yetarli darajada keng tushuncha. Iqtisodiy faoliyatni bir qancha tarmoqlar va tarmoq ichidagi tarmoqchalarga bo'lish mumkin. Tadbirkorlik esa iqtisodiy faoliyatning bir ko'rinishi. Tadbirkorlikni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida amalga oshirish mumkin.

Rossiyalik iqtisodchi S. E. Jilinskiyning ta'biriga ko'ra "Iqtisodiyot – insonlarning shunday faoliyatiki, unda insonlarning turli ko'rinishdagi talablarini qondirish uchun moddiy va ma'naviy boyliklar yaratiladi. [5]



T. P. Emelyanova va boshqalar tomonidan tayyorlangan “Основы рыночной экономики” nomli o’quv qo’llanmada “Insonlar hayoti uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadigan barcha faoliyat turlari” iqtisodiy faoliyatdir deya ta’rif berilgan. ^[6]

“Tadbirkorlik” tushunchasi XVIII asrda shakllangan bo’lsada, uning evolyutsiyasi bizning zamonda ham davom etmoqda. Ushbu tushuncha qariib uch asr davomida nazariya va amaliyotda qo’llanilib kelinayotganiga qaramay uning universal ta’rifi shakllanmagan va ko’p ma’noqli saqlanib kelmoqda. Buning asosiy sababi tadbirkorlikning ko’p qirrali, ko’p sohali, ko’p tarmoqli va ko’p shaklli murakkab faoliyat ekanligidir.

Dastlabki bosqichlarda tadbirkorlikning eng muhim alomati, belgisi noaniq sharoitda harakat qilish hisoblangan. Chunki bozorda talab va taklif, bozor vaziyati doimo o’zgarib turadigan sharoitda tadbirkorlik faoliyatining foydalilik darajasi aniq bo’lmaydi va tadbirkorga tavakkal qilib ishlashga to’g’ri keladi. Keyingi bosqichda “tadbirkor” va “sarmoyador” tushunchalari farqlana boshlandi. Tadbirkor sarmoyaning doimiy harakatda bo’lishi va ko’payib borishini ta’minlaydigan shaxs sifatida namoyon bo’ldi. Bunday holda tadbirkor jalb qilingan mablag’lardan ustalik bilan foydalanib, biror ishni boshlash va amalga oshirishga o’z faoliyatini, bilimi va tajribasini qo’llab, foyda olish maqsadida mablag’larni tavakkalli ishlarga sarflaydi.

Tadbirkorlikning tavakkalchilik xarakterini innovatsiyaga doir vazifasi bilan birlashtirish g’oyasi L. Fon Tyu-nenga tegishli bo’lib, uningcha, tadbirkorning daromadi tavakkalchilik faoliyatidan keladigan daromaddan va yangilikni qo’llash tufayli iqtisodiy samaraga erishish natijasida olinadigan daromaddan tashkil topadi.

O’zbekistonlik iqtisodchi olim H. R. Hamroyev tomonidan tayyorlangan “Tadbirkorlik asoslari” nomli o’quv qo’llanmada tadbirkorlik to’g’risida quyidagi fikrlar keltirilgan: tadbirkorlikning aniq darajasida uni ikki yo’nalishga ajratish mumkin, ya’ni tijoratga asoslangan tadbirkorlik va notijorat asosidagi tadbirkorlik. Tijoratga asoslangan tadbirkorlikning asosiy maqsadi moddiy daromad ko’rish, foyda olish hisoblanadi. Xo’jalik yurituvchi subyektlarning asosiy qismi tijorat tadbirkorligi subyektlari: korxona, firma, kompaniya, tashkilot, fermer va dehqon xo’jaliklari, agrofirma va boshqa shu kabilardir. Tadbirkorlikning ikkinchi yo’nalishi bo’lgan notijorat tadbirkorlikni amalga oshirish uchun notijorat tashkiloti tuziladi. Ularga diniy, xayriya, jamoat tashkilotlari va jamg’armalari, siyosiy partiyalar kiradi ^[7].

Bizningcha H. Hamroyev tomonidan tadbirkorlikning ikkinchi yo’nalishi sifatida notijorat tashkilotlarini ko’rsatilishi tadbirkorlikning asosiy xususiyati bo’lgan foyda olishga asoslanganlik xususiyatini bir tomonlama xususiyatga aylantirib qo’yadi. Ushbu tushuncha mamlakatimizda amal qilayotgan notijorat tashkilotlari to’g’risidagi qonun hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq qonunchiliklarga zid tushunchani keltirib chiqaradi.

O’zbekistonlik olimlar U. Umurzakov va A. Toshboyevlar tomonidan tayyorlangan “Kichik biznes va tadbirkorlik” nomli o’quv qo’llanmada tadbirkorlikka shunday ta’rif berilgan: tadbirkorlik – ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo’yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. ^[8]

TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasida 2012-yil 2-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida” gi qonunning 3-moddasida tadbirkorlik faoliyatiga shunday ta’rif berilgan: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o’zi tavakkal qilib va o’z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir” ^[9]

Ushbu qonunning tadbirkorlik faoliyati subyektlari to’g’risidagi 4-moddasida “Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir”. Davlat organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik subyektlari bo’lishi mumkin emas deb belgilab qo’yilgan

Tadbirkorlikning mohiyati shundan iboratki, birinchidan, O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi ^[10] va “O’zbekiston Respublikasida Tadbirkorlik to’g’risida”gi Qonunga ^[11] muvofiq, balog’at yoshiga yetgan har bir fuqaro o’z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o’z ixtiyori bilan qonunga zid bo’lmagan faoliyat turi bilan shug’ullanishi mumkin. Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish erkin tanlanadigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi bo’lib, unga mos ravishda tadbirkorlikning uch guruhini alohida ko’rsatish mumkin.

1. Yangi tovar ishlab chiqarish yoki mavjud tovar turiga yangicha ko’rinish va qo’shimcha qulayliklar kiritgan holda ishlab chiqarish, yangi xizmat turini ko’rsatishni tashkil etish yoki mavjud xizmat turiga qo’shimcha qulayliklar kiritgan holda mijozlarga taqdim etish (innovatsion faoliyat).
2. Bozorda mavjud tovarni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki boshqalar tomonidan ko’rsatilayotgan xizmat turini ko’rsatishni yo’lga qo’yish bilan shug’ullanuvchi tadbirkorlar.
3. Innovatsion tadbirkorlik evaziga ishlab chiqarilgan tovarlarni yoki bozorda oldindan mavjud tovarlarni mamlakatda yoki mamlakat tashqarisida ulgurji yoki chakana usulda sotishni tashkil etuvchi tadbirkorlik.



Maqsad jihatidan tadbirkorlikning ikki turi bo'lib, birinchisida tadbirkor foyda olish, samaraga erishishni maqsad qiladi. Bunday tadbirkorlik sifatida tovar yoki innovatsion tovar ishlab chiqarish yoki ushbu tovarlarni sotishni tashkil etuvchi tadbirkorlar va xizmat yoki innovatsion xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlarni keltirish mumkin. Ikkinchisida tadbirkor foydaga erishish bilan birga ijtimoiy samaraga (masalan tabiat muhofazasi, yosh avlod tarbiyasi, tibbiyot sohasi) erishishni ham maqsad qilib qo'yadi. Ikkinchi holatda foyda birinchisidagi kabi yuqori bo'lmashligi mumkin, ammo ushbu faoliyat jamiyat uchun katta ijtimoiy samara keltiradi.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik biznes yo'li bilan amalga oshiriladi. Biznes so'zi inglizcha so'z bo'lib, tadbirkorlik faoliyati yoki kishilarning foyda olishga qaratilgan faoliyatidir. Lug'atlarda biznesmen so'zi go'yoki tadbirkor, ishchan deb yuritilsa, biznes bu faoliyat, foyda keltiruvchi mashg'ulot deb tushuniladi. Tadbirkor va biznesmen kabi tushunchalarda ishlab chiqarish, dallolchilik, savdo, moliyaviy va innovatsiya faoliyatlari bilan shug'ullanuvchi va daromad olish niyatidagi inson ifodalanadi.

Tadbirkor va biznesmen tushunchalari iqtisodiy faoliyat sohaslarida ko'rilayotganda ma'nodosh deb hisoblanmaydi. Biznes – bu kishining bozor munosabatlari tizimidagi ishchanlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va turli sohalarda amalga oshiriladi. Tadbirkor tomonidan tashkil etilgan firma (tashkilot, fermer xo'jaligi, korxona) kichik biznesning bir qismiga aylanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining eng asosiy o'ziga xos va iqtisodiy faoliyatdan farqli xususiyati shundaki, tadbirkorlik biror bir shaxs yoki biror bir guruh tomonidan va mazkur shaxs yoki guruhning o'z mulki bilan tavakkalchilik qilishi hisobiga amalga oshiriladi. Iqtisodiy faoliyatni esa davlat ham amalga oshiradi.

Demak, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy faoliyatning boshqa yo'nalishlaridan shu bilan farqlanadiki, ya'ni bunda tadbirkor bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs o'z mulki va o'z javobgarligi bilan daromad olish maqsadida qonun doirasida amalga oshiradigan biror bir faoliyati tadbirkorlik faoliyati deb e'tirof etiladi va bu faoliyat davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari hamda qonun man etgan boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas.

Ammo shuni ta'kidlab o'tish kerak, tadbirkor yoki tadbirkorlik faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga alohida modda kiritilmagan. Rossiya davlat fuqarolik kodeksida esa bunday modda mavjud ekanligining guvohi bo'ldik.

Tadbirkorlikni amalga oshirishdan asosiy maqsad foyda olishdir. Tadbirkorlik faoliyati davomida iqtisodiyotning mikrodarajasida ishlab chiqarish faktorlarining birlashuvi yuz beradi va shu asosda tadbirkorlik foydasi hosil bo'ladi. Tadbirkor ushbu jarayonning tezlik bilan takrorlanishini istaydi va avans sifatida yo'naltirilgan kapitalning qaytishi va eng muhimi foyda bilan qaytishi uni yana qayta-qayta yangi tovarlar ishlab chiqarish uchun yo'naltirishga va yanada ko'proq foyda olishga undaydi.

Tadbirkorlik foydasining yuzaga kelishi va uning hajmi umumiy tushumdan tashqi xarajatlar va ichki xarajatlarni ayirib tashlaganda ko'rinadi va ushbu foydaning hosil bo'lishi hamda uning hajmi bir qancha faktorlarga bog'liq. Bunday faktorlar sifatida tadbirkor tomonidan ishni to'g'ri tashkil qilinishi, hamkorlarning to'g'ri tanlanishi, bozorning holati, talab va taklifdan kelib chiqqan holda tovarga bo'lgan bahoning shakllanishi, raqobatning holati va boshqa shu kabi bir qancha faktorlarni sanab o'tish mumkin.

Tadbirkor tomonidan doimiy ravishda foyda olishga erishish uchun ushbu faoliyatni doimiy ravishda o'rganish, tahlil qilish, marketing tadqiqotlarini olib borish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri tadbirkor tomonidan o'z faoliyatini o'zining mulki va o'z tavakkalchiligiga asosan amalga oshirishidir. Ya'ni tadbirkor o'zi rejalashtirgan faoliyatni amalga oshirar ekan, o'z mulki va mablag'iga nisbatan katta tavakkalchilikka yo'l qo'yadi. Bu tavakkalchilik ostida tadbirkor mulkining yo'qotilishi va boshqa moliyaviy zararlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar yotadi. Bu xavf-xatarlarning yuz berishi tadbirkorni katta hajmdagi moliyaviy yo'qotishlarga va oxir-oqibatda bankrotlik holatiga olib kelishi ham mumkin.

Shunday qilib, har qanday tadbirkorlik yo'nalishida, ya'ni u ishlab chiqarish bo'ladimi, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, savdo, moliyaviy xizmatlar, ijtimoiy-iqtisodiy yoki ilmiy-texnik loyihalarni amalga oshirish bo'ladimi xavf-xatar mavjud va u kutilmagan holatda yuz berishi natijasida tadbirkorning hayotiga, sog'lig'iga, mulkiga zarar yetishi yoki kutilgan foydani ololmasligi mumkin.

Bunday holatlarning oldini olish, ular yuz berganda esa ko'rilgan zararni qoplashning birdan-bir yo'li sug'urta xizmatlaridan samarali foydalanishdir.

Tavakkal qilish – bu biror ishning natijasi aniq bo'lmagan vaziyatda ehtimol, taxmin qilib uni amalga oshirishdir. Tadbirkorlikda tavakkalchilik faoliyatga safarbar qilingan resurslar va mo'ljallangan daromadni qisman yoki to'liq yo'qotish xavfidir. Xavf – bu ko'ngilsiz voqea yoki falokatning yuz berish ehtimolidir. Tavakkallik darajasi ehtimol qilinayotgan xavf darajasiga bog'liq. Tavakkalchilik uch elementni o'z ichiga oladi:

- istalgan natijaga erishish ehtimoli;
- ko'ngilsiz natijaning (omadsizlikning) ro'y berish ehtimoli;
- tanlangan (mo'ljallangan) maqsaddan chetlanish ehtimoli.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, tavakkal (risk) uni aniqlash yoki aniqlamaslik, hisobga olish yoki olmaslikdan qat'iy nazar mavjud bo'ladi. Tavakkalni aniqlash va hisobga olish maqsadida olib borilgan harakatlar



tavakkalni ma'lum darajada kamaytirish imkonini berishi mumkin. Tavakkallik darajasini aniqlashning bir necha usullari mavjud. Bunday usullar sifatida tavakkalni aniqlashning analitik usuli, iqtisodiy usuli va statistik usullarini ko'rsatish mumkin. Bizning nazarimizda ushbu usullar ichida statistik usul ko'proq ishonchli va shu tufayli amaliyotda keng qo'llanilayotgan usul hisoblanadi.

Tadbirkorlik va biznesda tavakkalchilik biror ish bilan shug'ullanganda omadsizlikka uchrash ehtimolidir. Bunday omadsizlikka turli xil xavf-xatarlar sabab bo'lishi mumkin. Tadbirkorlar mavjud va yangi paydo bo'ladigan xavf-xatarlarni yaxshi bilishlari va ularning oldini olish yoki salbiy oqibatlarini pasaytirish choralarini ko'rib qo'yishlari lozim. Bunday choralardan eng maqbuli, yuz berishi mumkin bo'lgan xatarlarni sug'urtalashdir. Sug'urtalanishi mumkin bo'lgan bunday xatarlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: tabiiy hodisalarining yuz berishi natijasida yuzaga keladigan xatarlar, ya'ni zilzila, tsunami, qattiq shamol, qurg'oqchilik, garm-sel, qattiq sovuq, do'l, sel kelishi, yer cho'kishi va hokazolar. Stixiyali hodisalar natijasida yuz beradigan xatarlar, ya'ni yong'in, transport halokatlari, yuklarni tashishda yo'qotishlar va buzilishlar, korxona xodimlarining e'tiborsizligi natijasida yuzaga keladigan xatarlar, o'g'rilik, talonchilik, loyihadagi xatoliklar, siyosiy xatarlar, korxonadagi muhim shaxsning kasallanishi yoki vafot etishi, baxtsiz hodisalar, tijorat xatarlari, bozor konyunkturasi o'zgarishi, ishchilar noroziligi, hamkorlar tomonidan shartnoma shartlarining bajarilmasligi, ko'zlangan foydani ololmaslik, menejerlar xatolari, narx-navoning oshib ketishi yoki pasayishi, qonunchilikdagi o'zgarishlar va hokazolar.

Tadbirkorlik sohasi bugungi kunda O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib bormoqda, iqtisodiyotda tobora muhim o'rin tutib, uning yetakchi kuchiga aylanib bormoqda. Ammo shunday bo'lsada, tadbirkorlikning imkoniyatlari yanada yuqori. Bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun tadbirkorlik iqtisodiy asoslangan, ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga to'liq kirgan bo'lishi, moddiy va moliyaviy mablag'lardan yuqori darajada samarali foydalanadigan, buning uchun ishlab chiqarishning eng ilg'or texnologiyalaridan va innovatsiyalardan keng foydalanadigan bo'lishi zarur.

Tadbirkorlik sohasining rivojlanishi ijtimoiy soha bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Tadbirkorlik sohasining rivojlanishi insonlar turmush farovonligining oshishiga olib kelishi va ushbu sohada topilgan daromadlar alohida guruhlarining daromadiga aylanib qolmasligi kerak. Bu borada ushbu sohani tartibga solishda davlatning roli muhim hisoblanadi.

Tadbirkorlik sohasining risoladagidek rivojlanishi uchun mazkur soha bilan siyosiy soha o'rtasida uzviy munosabat yo'lga qo'yilishi zarur. Ya'ni davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda tadbirkorlik sohasiga tayanishi va o'z o'rnida tadbirkorlar davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatida davlat bilan hamkorlikda ish yuritishi zarur. Shunday holatdagina tadbirkor uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Tadbirkorlik faoliyati bir qancha tamoyillar asosida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ushbu tamoyillar umumiy tusga ega bo'lib, har bir mamlakatda ularning ro'yobga chiqarilishi turli darajada bo'lishi mumkin. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demokratiya asoslari qanchalik yuqori bo'lsa, tadbirkorlik tamoyillari ham shunchalik to'liq ro'yobga chiqariladi. Tadbirkorlikning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: erkinlik, mustaqillik, teng huquqlilik, ixtiyoriylik, moddiy javobgarlik va qonuniylik. Mamlakatda mazkur tamoyillar qanchalik darajada to'liq ta'minlangan bo'lsa, tadbirkorlik shunchalik darajada yaxshi rivojlanishi mumkin.

Shuni ham aytib o'tish kerak, ayrim tadbirkorlar yuqorida aytilgan umumiy tamoyillardan tashqari, o'zlari uchun muhim hisoblangan alohida tamoyillarni ham shakllantirib, ularga ham rioya etib keladilar. Masalan amerikalik supermarket qiroli Sem Uolton o'zining quyidagi tamoyillariga amal qilgan:

- barqaror daromad yuqori daromaddan yaxshiroq;
- firmani kengaytirish uni boshqa firmalar bilan qo'shishdan yaxshiroq;
- axborot bebahodir;
- hamma narsada yoppasiga tejamkorlik;
- ishlab chiqarish korxona ostonasida emas, balki savdo peshtaxtasida tugaydi.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida tadbirkorlar uchun bir qator ko'rsatmalar, maslahatlar, ishlab chiqilgan. Quyida ulardan ayrimlarini keltiramiz.

- Tijoratga asoslangan g'oyani topish.
- Raqobatdan qo'rqmaslik.
- Sifatga e'tibor berish.
- Biznes reja asosida ishni tashkil qilish.
- Narxni pasaytirishdan qo'rqmay, uni ko'tarishdan qo'rqish.
- Mahsulotni reklama qilish.
- Kredit olish mumkin bo'lsa, uni olishdan qo'rqmaslik.
- Odamlarga xayrixohlik bilan muomala qilish.
- Faqat birgina ish bilan shug'ullanib qolmaslik.
- Asosiy kapital tadbirkorning o'zi hisoblanadi.



Tadbirkorlik sohasi yangiliklarga intiluvchan, resurslarni tejash va samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi usullarni qidirib topishga harakat qiluvchi, tavakkalchilikka asoslangan soha hisoblanadi.

Mazkur ishda tadbirkorlik sohasi borasida kengroq mushohada qilishimizning sabablaridan biri ushbu sohaning barqarorligini ta'minlashda muhim unsur hisoblangan sug'urta sohasining o'zi ham aslida tadbirkorlik faoliyatining bir ko'rinishi ekanligidir.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari bilan bog'liq risklar turli ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyati davomida yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy va boshqa kutilmagan hodisalardan ko'riladigan zararlarni o'z ichiga oladi. Turli sabablar (xom ashyoning yetishmay qolishi, elektr, gaz va yoqilg'i-moylash materiallarining yetishmay qolishi, ish joyida yong'in chiqishi va hokazolar) oqibatida yuz beradigan ishlab chiqarishdagi uzilishlar natijasida ko'riladigan zararlar, bankrotlik holatlari, tayyor mahsulotning sotilmay qolishi yoki sotilgan mahsulot uchun to'lovning amalga oshmay qolishi kabi holatlar ham tadbirkorlik tavakkalchiliklari bilan bog'liq risklardir.

Tadbirkorlik faoliyatidagi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga sabab bo'luvchi bir qancha xatarlar, masalan, xom ashyoni yetkazib berishning to'xtab qolishi, ishchi kuchining yetishmay qolishi, elektr energiyasi va boshqa energiya vositalarini yetkazib berishning to'xtab qolishi va boshqa holatlar ishlab chiqarishdagi uzilishlarga sabab bo'lishi va natijada ko'zlangan foydaga erisha olmaslik holatlari yuz berishi mumkin.

Tijorat faoliyatida tovar uchun to'lovlar bilan bog'liq xatarlar yuz berishi mumkin, ya'ni yetkazib berilgan tovar uchun xaridorning to'lovga qobiliyatsizligi yuz berishi va natijada to'lovni amalga oshira olmasligi mumkin. Ma'lum mamlakat miqyosidagi siyosiy holatlar natijasida sotuvchi yoki xaridorga mahsulotni sota olmaslik yoki sotib ololmaslik holatlari yuz berishi mumkin.

Hozirgi zamon sharoitida tijorat risklari keskin ortib bormoqda, chunki ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar soni oshib ketdi va o'z o'rnida mazkur sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ham ortib bormoqda. Ushbu faoliyatda mavjud tavakkalchiliklarning yuz berishi natijasida ko'riladigan zararlar ushbu sohaga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi bilan belgilanishi hamda shu bilan birga olinadigan foyda ham hisobga olinishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik xatarlari ko'p hollarda tabiiy hodisalar natijasida yuz berishi mumkin, ya'ni turli tabiiy hodisalar tufayli hosildorlikning kamayishi yoki umuman bo'lmay qolishi, sifatsiz mahsulot yetishishi va hokazolar natijasida qilingan xarajatlarni chiqara olmaslik yoki kutilgan foydani ololmaslik mumkin. Bundan tashqari ishlab chiqarish va mahsulot sotish bilan bog'liq boshqa xatarlar ham yuz berishi mumkin.

Tashqi faoliyat bilan bog'liq xatarlar ko'p hollarda siyosiy xatarlar, mahsulotni tashish bilan bog'liq xatarlar, to'lovga qobiliyatsizlik va boshqa xatarlar bo'lishi mumkin.

Kredit risklari bilan bog'liq xatarlar xaridorga beriladigan tijorat kreditlari, sotuvchi yoki xaridorga beriladigan bank ssudasi, kredit bo'yicha majburiyat yoki kafillik, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqalar hisoblanadi. Ushbu risklarning yuz berishi natijasida sotuvchi yoki sotib oluvchining to'lovga qobiliyatsizlik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatining maqsadi foyda olish. Shuning uchun ushbu foydani ololmaslik riski muhim hisoblanadi. Foydani ololmaslikning sabablarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1) stixiyali hodisalar tufayli ishlab chiqarish jarayonining buzilishi natijasida rejadagi foydani ololmaslik yoki umuman zarar bilan chiqish;
- 2) bozor konyunkturasining o'zgarishi natijasida tovarning sotilmay qolishi.

Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishda texnik va texnologik risklar ham yuzaga kelishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarida risk darajasi ortib bormoqda. Respublikamizdagi 40 dan ortiq shaharlar suv toshqini yuz berganda suv ostida qolish xavfi bor. Mamlakatning barcha hududlari 7 balldan ortiq zilzila bo'lish xavfi ostida. Shaharlarda 50 ga yaqin yirik kimyoviy, yong'inga xavfli, portlovchi obyektlar mavjud. Kimyo sanoati korxonalari, neft ximiyasi va neftni qayta ishlash korxonalarining asosiy qismi yirik shaharlarda yoki ularning yaqinida joylashgan. Ushbu xavflarning yuz berishi har qanday tadbirkorlik subyektining faoliyatiga katta hajmdagi zarar keltirishi mumkin.

Shu yilning (2020-yil)-aprel oyida mamlakatimizning Buxoro viloyatida yuz bergan kuchli shamol ko'p sondagi aholi uylari, ularning transport vositalari hamda hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazdi, shu bilan birga bunday zararlar tadbirkorlik subyektlarini ham chetlab o'tgani yo'q. Aprel oyining oxiri va-may oyining boshida Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi suv omborining ochilib ketishi mingdan ortiq aholi uy-joylariga, transport vositalariga, qishloq xo'jalik ekinlariga va chorva mollariga va shunday zararlar tadbirkorlik subyektlariga ham yetkazilganligi yuqorida keltirilgan xavflar shunchaki gap emasligini asoslaydi.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun tadbirkorlarga byudjetdan tashqari fondlar va tijorat banklarining imtiyozli kreditlari hamda chet el kredit liniyalari va xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari ajratilmoqda. Albatta ajratilayotgan bu mablag'larning qaytmaslik riski ham mavjud.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklar turli-tuman bo'lib, ularning yuz berish ehtimolligi va keltirishi mumkin bo'lgan zarar hajmi ham turlicha, shu tufayli ularning xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish, tasniflash va shu asosda qaror qabul qilish zarur.



Kichik va o'rta biznes korxonalarini moliyalashtirish masalasi ham murakkab va turli risklar bilan bog'liq bo'lib, shu tufayli bu boradagi ilg'or chet mamlakatlarning tajribalarini o'rganish zarur deb hisoblaymiz. Ilg'or chet mamlakatlarda kichik va o'rta biznes korxonalarini moliyalashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Imtiyozli kreditlash dasturlari. Bunday dasturlar turli banklar tomonidan amalga oshirilishi mumkin (davlat, maxsus, tijorat banklari). Bunday dasturlar foiz stavkalarini subsidiyalash, qayta moliyalashning imtiyozli stavkalarini qo'llash orqali mablag' ajratish, ijtimoiy yo'nalishdagi faoliyatlarni kapitallashtirishni oxiriga yetkazish maqsadida amalga oshiriladigan davlat dasturlari, kredit risklarini sug'urtalash kabi usullarda amalga oshiriladi.

Ba'zi mamlakatlarda bozor prinsiplarini saqlagan holda, kichik va o'rta biznes korxonalariga banklar tomonidan ajratiladigan kreditlarning foiz stavkalariga kompensatsiyalar ajratish yo'li bilan mazkur korxonalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinadi (Xitoy, Koreya va boshqa mamlakatlar). Singapurda kichik va o'rta biznes korxonalariga ularning ishchi va xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish uchun beriladigan kreditlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladi.

Germaniyada imtiyozli dasturlarni "KFWMittelstandsbank" davlat banki orqali amalga oshiriladi va bunda tijorat risklarining yarmini davlat o'z zimmasiga oladi. Bundan tashqari, "KFWMittelstandsbank" kichik biznesga yo'naltiriladigan investitsiyalarni moliyalashtirishda kreditning qaytmaslik riskining 80 foizini o'z zimmasiga oladi, qolgan 20 foizini xizmat ko'rsatuvchi bank o'z zimmasiga oladi. Alohida hududlarda ishlab chiqarish sohasida yangi ish o'rinlarini tashkil qilish yoki mavjudlarini saqlab turish uchun alohida dasturlar ishlab chiqiladi va subsidiyalanadi (yangi ish o'rnini yaratish uchun ko'pi bilan 200 ming yevro va mavjud ish o'rnini saqlab turish uchun 70 ming yevro subsidiyalanadi). Ishsizlar soni ko'p bo'lgan hududlarda tadbirkorlar korxona tashkil qilish uchun iqtisodiyot vazirligidan gender prinsipi bo'yicha 10 mingdan 20 ming yevrogacha yer subsidiyasi olishi mumkin. Subsidiya olish uchun davlat tomonidan qo'yilgan talab yangi ish o'rinlarini yaratish va 25 ming yevrodan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritishdan iborat.

Yaponiyada kichik biznes Moliyaviy korporatsiyasi, Milliy moliyaviy korporatsiya, "Soko-Chukin" banki yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalar ishlab chiqish, alohida hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ushbu hududlarda kichik va mikro korxonalar tashkil etish, kichik biznes korxonalari o'rtasida ishlab chiqarish va texnik kooperatsiyani tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar ajratadi.

Kichik biznesning alohida yo'nalishlarini rivojlantirishni moliyalashtirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etish. Rossiyada kichik va o'rta korxonalar davlat korporatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, ushbu korporatsiya davlat byudjetidan maxsus MSP-bank orqali 6 foizli fond olishi va uni 10,5 foizdan ortiq bo'lmagan foiz bilan kichik biznes korxonalariga berishi mumkin. Ispaniyada rasmiy kreditlash instituti tashkil etilgan. Fransiyada OSEO davlat tashkiloti tashkil etilgan bo'lib, ushbu tashkilotning asosiy funksiyasi innovatsiyalarni moliyalashtirish, texnologiyalar transferti va innovatsion loyihalarni rivojlantirish, kafolatlash kabilardan iborat. Hamkor banklar bilan birgalikda moliyalashtirish amalga oshiriladi hamda hamkor banklar kreditlariga kafolatlar taqdim etiladi (kafolat kreditning 40 foizini qoplaydi, startaplar uchun ushbu kafolat 70 foizgacha oshirilishi mumkin). Yaponiyada kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash kichik va o'rta biznesni sug'urtalash davlat korporatsiyasi tomonidan amalga oshirilib (buning o'xshashi Xitoy va AQShda amal qiluvchi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat fondi), ushbu korporatsiya ilmiy va yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarni kreditlaydi, kreditlar kafillarning kafolatlari va boshqa kafolatlar asosida beriladi, informatsion va ta'lim bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladi. Bundan tashqari Yaponiyada Milliy moliyaviy korporatsiya kichik biznesni kreditlovchi yirik tashkilot hisoblanadi. Xitoyda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish davlat fondi tashkil etilgan bo'lib, ushbu fond davlat byudjetidan moliyalashtiriladi.

Tijorat kreditlari bo'yicha kafolatlarni taqdim etish tizimini tashkil etish (maxsus kafolat fondlarini tashkil etish yoki kichik biznesni kreditlash bozoriga boshqa tijorat banklarini jalb etish uchun kafolatlarni taqdim etish orqali maxsus banklar faoliyatini kengaytirish). Masalan, Rossiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlashni rivojlantirishda so'nggi yillarda MSP korporatsiyasining kafolat dasturlari muhim rol o'ynamoqda. 2015-yilning oxirida Rossiya hududlarida 58 ta hududiy kafolat tashkilotlari faoliyat ko'rsatdi. Maxsus MSP-bank 2013-yildan boshlab investitsion maqsadlarda ajratilgan kreditlarga kafolatlar taqdim etib kelmoqda. Yaponiyada kreditlarni kafolatlash Assotsiatsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Xitoyda ham kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha davlat fondlari amal qilayotgan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi kichik biznesga kafolatlar taqdim etishdan iborat. AQShda kichik biznes federal ma'muriyati tomonidan tijorat banklari ajratadigan kreditlarni kafolatlash amalga oshiriladi. Bu tadbir kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasidagi keng tarqalgan tadbir bo'lib, ushbu kafolatlar ajratilayotgan kreditlarning 90 foizgacha bo'lgan qismini tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda turli davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga kiritilishi muhim ro'lni o'ynamoqda. Bunday dastur sifatida Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan COSME dasturini aytib o'tish mumkin. Ushbu dasturning qiymati 2,3 mlrd. yevro miqdorida bo'lib, uning amal qilish davri 2014–2020-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturning maqsadi kichik



va o'rta korxonalarga ularni tashkil etish, kengaytirish va transformatsiya jarayonlarini o'tkazishda moliyalashtirish bo'yicha qulayliklar yaratishdan iborat. Ushbu dastur asosida korxonalar kafolatga, kreditga va boshlang'ich kapitalga ega bo'ladigar. Bundan tashqari COSME Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlari va undan tashqari hududlarga chiqishda korxonalarga imkoniyatlar yaratib beradi. Mazkur dastur yevropa korxonalarining hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish hamda ishchi va texnologik hamkorlarni qidirib topishda yordam beradi.


Bundan tashqari ushbu dastur tadbirkorlarga tadbirkorlik sohaksidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishda ko'maklashadi. Tadbirkorlarning alohida guruhlarini (yoshlar, ayollar va qariyalar) qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham ishlar olib boradi. Bundan tashqari dastur orqali tadbirkorlar zamonaviy raqamli texnologiyalarga ega bo'lishda ham ko'makka ega bo'ladilar. Biznes uchun qulay sharoit yaratish maqsadida ushbu dastur ma'muriy va tartibga solish bo'yicha xarajatlarni kamaytirish borasida ham ishlar olib boradi. Yangi biznes-modellarga va innovatsion amaliyotlarga o'tish borasida ishlar olib boradi.

Buyuk Britaniyada kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish tizimi. Angliyada mavjud barcha korxonalarining 99 foizi kichik va o'rta korxonalardan iborat. Ushbu korxonalarda yalpi qo'shilgan qiymatning 49,8 foizi yaratiladi.

2011-yilda hududlarni rivojlantirishga ixtisoslashgan maxsus fond tashkil etilgan bo'lib, hozirda uning byudjeti 2,6 mlrd. funt sterlingni tashkil etadi va ushbu fond butun mamlakat bo'ylab faoliyat ko'rsatadi. Fond mablag'lari kichik va o'rta biznes korxonalarining investitsion faoliyatini faollashtirish va shu asosda iqtisodiy rivojlantirish hamda bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan loyiha va dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Fondning 2,4 mlrd. fund.st. mablag'ini joylashtirish xususiy sektorning 13 mlrd. funt.st.dan ortiq mablag'ini iqtisodiyotga jalb qilishga olib keladi va natijada 500 ming ishchi o'rinarini tashkil qilish yoki saqlash imkonini beradi. Misol tariqasida fondning ko'magi bilan moliyalashtirilayotgan quyidagi dasturlarni aytish mumkin: biznes-angellarni birgalikda moliyalashtirish fondi, Shotlandiya qirollik bankini (RBS) va Milliy Vestminster bankini (NatWest) hududiy rivojlantirish dasturi, HSBC aktivlarini sotib olishga ko'maklashish dasturi.

Bundan tashqari, Angliyada kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa Ittifoqi dasturlaridan samarali foydalanilmoqda, bular grantlar, kreditlar va kafolatlardir.

Yaponiyada kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish tizimi. Kichik va o'rta biznes Yaponiya iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Yaponiyadagi barcha kompaniyalarning 99,7 foizi, ish bilan band aholining 70 foizi va sanoat industriyasida qo'shilgan qiymatning 50 foizdan ortig'i ushbu sektor hissasiga to'g'ri keladi (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston va ba'zi chet mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida kichik va o'rta biznesning ulushi ^[12]

Misol uchun bugungi kunda gigant korxonalar hisoblangan Toyota Honda va Sony kabi korxonalar tashkil etilgan paytda kichik korxona sifatida tashkil etilgan. Yirik kompaniyalar mahsulotlari qismlarining asosiy qismi kichik va o'rta korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi. Bu mazkur sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlashning kuchli tizimini ta'minlash imkoniyatini beradi. Yana shuni alohida ta'kidlash kerak, mazkur mamlakatda innovatsiyani rivojlantirish maqsadida ilmiy-texnik dasturlarni qaytarmaslik sharti bilag moliyalashtirish yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, yangi texnologiyalar va yangi mahsulotlar ishlab chiqish, alohida hududlarda yangi



ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish ishlari uchun davlat va mahalliy organlar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratiladi. Kichik va o'rta biznes bilan bog'liq barcha tadbirlar kichik va o'rta korxonalar Agentligi boshchiligida turli tashkilotlar tomonidan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi. Mamlakatda kichik va o'rta biznes sohasini past foiz stavkalarida moliyalashtiradigan moliyaviy institutlar tashkil etilgan bo'lib, ular davlat bilan hamkorlikda mazkur soha vakillarini uzoq muddatli imtiyozli mablag'lar bilan ta'minlaydi. Bunday institutlar sifatida savdo va sanoat uchun ishlovchi Markaziy kooperativ bankni, kichik va o'rta korxonalarni moliyalashga ixtisoslashgan Milliy korporatsiyani aytib o'tish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Turli mamlakatlar tajribalarini o'rganish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini moliyalashtirishni rivojlantirish, faoliyatidagi risklarni sug'urtalash, eksport potensialini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda aholiga moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi, davlat va mahalliy hokimiyat idoralari bilan hamkorlikda ish yurituvchi, turli ko'rinishdagi nobank kredit tashkilotlarini tashkil qilish.

2. Xo'jalik subyektlari va aholi mablag'larini jamlash evaziga o'z faoliyatini qishloq joylarda amalga oshiruvchi va mazkur hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hamda aholini kreditlash faoliyatini amalga oshiruvchi kredit tashkilotlarini hamda o'zaro sherikchilik va javobgarlikka asoslangan, kreditlashga ixtisoslashgan guruhlar tashkil etish evaziga kichik biznes va aholini qulay va past foizli kredit mahsulotlari bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish. Bunda aholi omonatlarini jalb qilishni alohida e'tiborga olish.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni yuqori bo'lib, bu o'z-o'zidan mazkur soha bilan bog'liq sug'urtalanishi mumkin bo'lgan risklarning ko'payishiga olib keladi. Bu esa bu boradagi sug'urta xizmatlarini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son. www.lex.uz
2. Дикинс, Д.; Фрил, МС (2009) "Предпринимательская деятельность, экономика и значение малых предприятий". Предпринимательство и малые фирмы. McGraw-Hill образования. ISBN 978-0-07-712162-4.
3. Петти А, Смит А., Рикардо Д. Антология экономической классики / сост. И.Столяров, Москва, Эконов: ключ. 1993, – с.204
4. Тимофеева А.А. История предпринимательства в России: учеб. Пособие.-Второе изд., стереотип. –Москва, Флинта, 2011, -с.58.
5. Жилинский С.Э. Указ.соч. с.9
6. Основы рыночной экономики:учеб. Пособие под ред. Т.П.Емельяновой – спб. 2016. – с. 11.
7. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari. T. : "Yangi nashr", 2019-y. 18 b.
8. U. Umurzakov, A. Toshboyev Kichik biznes va tadbirkorlik T. :yangi asr avlodi 2012-y.
9. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonun. 2012-y. 2-may. www.lex.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil 8-dekabr. Lex.UZ
11. "O'zbekiston Respublikasida Tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonun. 1993 yil 7-may. www.lex.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi (www.stat.uz sayti ma'lumotlari)

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.